


**NAVOIY VILOYATININGINING
CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI**


2018 yil yanvar-dekabr

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 459,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 467,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 46,7 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 4 991,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 892,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko`rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Navoiy shahri, Qiziltepa, Zarafshon, Xatirchi tumanlarida qayd etildi.




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,7 % ga o'sdi va 467,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	5 459,0	467,9	8,6	4991,1	91,4
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	1 653,0	427,3	25,8	1225,7	74,2
Zarafshon shahar	567,6	7,3	1,3	560,3	98,7
Karmana tuman	823,3	5,5	0,7	817,8	99,3
Konimex tuman	145,3	0,8	0,6	144,6	99,5
Qiziltepa tuman	656,1	14	2,1	642	97,9
Navbahor tuman	347,5	0,9	0,3	346,6	99,7
Nurota tuman	250,4	3	1,2	247,4	98,8
Tomdi tuman	40,8	0,2	0,5	40,6	99,5
Uchquduq tuman	289	3,1	1,1	285,9	98,9
Xatirchi tuman	686	5,8	0,8	680,2	99,2


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 4 991,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,9 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,4 %ga teng kelmoqda.

Joriy yilning 12 oylik tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,7%), Tomdi (99,5%), Konimex (99,5%), Karmana (99,3%) va Xatirchi (99,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (25,8%) va Qiziltepa (2,1%) tumanida kuzatilgan.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**30,3 foiz**), Karmana tumani (**15,1 foiz**), Xatirchi tumani (**12,6 foiz**), Qiziltepa tumani (**12,0 foiz**) va Zarafshon shahri (**10,4 foiz**) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 %ni tashkil etib, 135,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 5,7 mln. so'mni tashkil etdi.

O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy shahri (12,2 mln. so'm), Uchquduq tumani (7,8 mln. so'm) va Zarafshon shahrida (6,9 mln. so'm) kuzatildi.

	Aholi jon boshi (ming sum)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)
Navoiy viloyati	5 650,0	104,8
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Navoiy shahar	12 154,4	111,7
Zarafshon shahar	6 930,4	102,6
Karmana tuman	6560,2	101,1
Konimex tuman	4875,8	102,8
Qiziltepa tuman	4433,1	103,4
Navbahor tuman	3167,7	101,8
Nurota tuman	2776,1	102,4
Tomdi tuman	2833,3	102,7
Uchquduq tuman	7810,8	101,1
Xatirchi tuman	3545,2	102,4


**NAVOIY VILOYATININGINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2018 yil yanvar-dekabr

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 586,9 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 187,3 %ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmiga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 1 072,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3 martaga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,6 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 32,4 % ni tashkil etdi.



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri, Karmana va Qiziltepa tumanlarida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovaraylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 7 ta tumanda asosan ulgurji savdo tovaraylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.


Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovaraylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, 1 277,7 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobarga oshdi).

	Jami (mlrd.so`m)	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
--	---------------------	------------------------------------	----------------	-------------------------------------	----------------

Navoiy viloyati	1 586,9	1 072,6	67,6	514,3	32,4
------------------------	----------------	----------------	-------------	--------------	-------------

shahar va tumanlar:

Navoiy shahar	1 277,7	1 072,2	83,9	205,6	16,1
Zarafshon shahar	27,1	-	-	27,1	100,0
Karmana tuman	143,6	0,3	0,2	143,3	99,8
Konimex tuman	6,7	-	-	6,7	100,0
Qiziltepa tuman	53,3	0,1	0,2	53,2	99,8
Navbahor tuman	32,4	-	-	32,4	100,0
Nurota tuman	7,0	-	-	7,0	100,0
Tomdi tuman	0,003	-	-	0,003	100,0
Uchquduq tuman	6,4	-	-	6,4	100,0
Xatirchi tuman	32,7	-	-	32,7	100,0



Tahlil natijalariga kura ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**80,5 foiz**), Karmana tumani (**9,0 foiz**) va Qiziltepa tumani (**3,4 foiz**) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36